XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARINI STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI DOIRASIDA SHAKLLANTIRISH VA ULARNING HOLATINI TAHLIL QILISH	821
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
К ВОПРОСУ РАСЧЕТА МОЩНОСТИ, НЕОБХОДИМОЙ ДЛЯ РАЗОГРЕВА КРОМОК ТРУБНОЙ ЗАГОТОВКИ ДО ТЕМПЕРАТУРЫ СВАРКИ	825
Заиркулов Элёр Ёкубжон ўғли	
TEKNOLOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISHNING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARI	830
Bekishev Allabergen Yergashevich, Hamadulloyev Diyorbek Hasanboy o'g'li	
ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL AND GOVERNANCE) TAMOYILLARINING IQTISODIY RIVOJLANISH VA KORPORATIV FAOLIYATGA TA'SIRI: MAKRO VA MIKRO DARAJADAGI TAHLIL	834
Murtozayev Sardorbek Abdijalil o'g'li	
TESTING THE STATISTICAL SIGNIFICANCE OF DYNAMIC MODELS IN ECONOMICS	838
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
REAL IQTISODIY DAVRLAR NAZARIYASI VA UNDAN MAKROIQTISODIY TADQIQOTLARDA FOYDALANISH.....	843
Rustamov Narzillo Istamovich	
РАСЧЕТ РАСТЯЖЕНИЯ ДРЕВЕСИНЫ И ДЕРЕВЯННЫХ КОНСТРУКЦИЙ ИЗ МЕСТНЫХ ДРЕВЕСНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПОД ДИНАМИЧЕСКИМИ НАГРУЗКАМИ.....	848
Юнусалиев Эльмурод Мухаммадьякубович, Ташпулатов Илхомжон Бахтиёрович	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ И ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ФОНДОВОГО РЫНКА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	854
Евгений Юрьевич Шек	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	860
Шодмонов Қобилжон Қахрамон ўғли	
AGRAR IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	870
Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi, Ibrohimova Muazzam Muhammadjon qizi	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA BU BORADAGI MUAMMOLAR	873
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
ДАТЧИКИ ИНТЕРНЕТА ВЕЩЕЙ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДЛЯ МОНИТОРИНГА ТЕПЛИЧНЫХ КОМПЛЕКСОВ	878
Самадов Эльёр Эркинович	
МЕТОДЫ ОПТИМИЗАЦИИ РАБОТЫ ЭКСКАВАТОРНО-АВТОМОБИЛЬНОГО КОМПЛЕКСА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ НА ОТКРЫТЫХ ГОРНЫХ РАБОТАХ	884
Аннакулов Тулкин Жовбекович, Норимонов Шамсиддин Нураддинович	
ПРОГНОЗИРУЮЩЕЕ УПРАВЛЕНИЕ СЛОЖНЫМИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ И ПРОИЗВОДСТВАМИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ	892
Гулямов Шухрат Манапович	



OLIY TA'LIM TASHKILOTI SUBYEKTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH	896
<i>Xonimqulov Islom Ergash o'g'li</i>	
XIZMAT KO'RSATUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA MODDIY-TEXNIKA RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	901
<i>Kamoliddinov Ilxomjon Muxammadjonovich</i>	
THE HIDE AND SHADOW ECONOMY IN UZBEKISTAN	905
<i>Koshanov Abdimurat Azat uli, Abdimuratova Altingul Kalbayevna</i>	
SHAHAR AGLOMERATSIYALARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.....	910
<i>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</i>	
MOL-MULK SOLIG'I HISOB VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	914
<i>Sh.M.Ergashev</i>	
HUDUDLARDA QURILISH OBYEKTLARINI QURILISH MATERIALLARI BILAN TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	918
<i>Najimov Iskander Perdebayevich</i>	
TOVAR MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILY AMALLARNI O'TKAZISH VA ULARNING BOSQICHLARI.....	922
<i>Tajekeev Ziyatdin Kobeytinovich</i>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ЗАТРАТАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	927
<i>Минутдинова Лилия Тагировна</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ ОСВЕЩЕНИЯ САЛОНОВ ВАГОНОВ МЕТРОПОЛИТЕНА ПУТЕМ ЗАМЕНЫ ЛАМП НАКАЛИВАНИЯ ЛБ-40 (ЛБ-36) НА СВЕТОДИОДНЫЕ LED-ЛАМПЫ	934
<i>Файзуллаев Асомитдин Аловитдинович, Нематов Эркин Хамраевич, Пирназаров Шохрух Холмурод угли</i>	
HUDUDY BARQAROR O'SISHDA INKLYUZIV IQTISODIY MEKANIZMLARNING ROLI	939
<i>Xamroqulov M.J.</i>	
UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM STRENGTHENS ITS POSITION ON THE INTERNATIONAL STAGE.....	944
<i>Umarov Diyor Ravshanovich</i>	
YANGI TAKOMILLASHTIRILGAN PAXTA SEPARATORINI KORXONADA SINOV JARAYONIDAN O'TKAZISH.....	949
<i>Raximov Akbar Xolmurodovich</i>	
KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILY YONDASHUV	953
<i>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</i>	
КИНЕТИЧЕСКАЯ АРХИТЕКТУРА НА ПРИМЕРЕ ДИНАМИЧЕСКИХ ФАСАДОВ	958
<i>Хаитов Суннатжон Истамович</i>	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI.....	963
<i>Ibragimova Shahlo Alimbayevna</i>	
ЗАКОНОМЕРНОСТИ ДЕСУЛЬФУРАЦИИ МЕТАЛЛА ШВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОСТАВА ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ФЛЮСОВ	969
<i>Абралов Музаффар Махмудович</i>	
РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ	975
<i>Бахрамов Зиядулла Баходирходжаевич</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	979
<i>Yuldasheva Mexrunisa Qasimjan qizi</i>	
OLIY TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	984
<i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>	



XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	989
Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxxarova	
TEMIR YO'L TRANSPORTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	994
Raximov Xasan Shukurjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1000
Yuldashev Doniyor Tairovich	
PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI	1005
Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1011
Axmedova Xumora Ibroxim qizi	
ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	1015
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
KLASTERLAR FAOLIYATIDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASHI VA INVESTORLAR ROLI	1026
Karimova Nilufar Sadriddin qizi	



KLASTERLAR FAOLIYATIDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASHI VA INVESTORLAR ROLI

Karimova Nilufar Sadridin qizi

TDIU, v.b. dotsent

E-mail: nilufarkarimova1013@gmail.com

Annotatsiya. Global iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonlarining chuqurlashuvi, shuningdek qishloq xo'jaligida integratsiyaning kuchayishi va resurslardan oqilona foydalanish zarurati qishloq xo'jaligi klasterlarining ahamiyatini keskin oshirdi. Klaster modeli hududiy konsentratsiya, kooperatsiya va iqtisodiy integratsiya tamoyillariga asoslanib, unda davlat va qishloq xo'jaligi sektori o'zaro murakkab hamkorlik tizimini shakllantiradi. Bunday sharoitda davlatning qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda investorlarning strategik ishtiroki klasterlarning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Kalit so'zlar: Klaster, qishloq xo'jaligi, investor, raqobat, qo'llab-quvvatlash mexanizmi, agrotekhnologiyalar.

Abstract. The deepening of production processes in the global economy, as well as the growing need for agricultural integration and the rational use of resources, has significantly increased the importance of agricultural clusters. The cluster model is based on the principles of territorial concentration, cooperation, and economic integration, within which the state and the agricultural sector form a complex system of mutual collaboration. Under these conditions, state support mechanisms and the strategic participation of investors are becoming decisive factors in ensuring the sustainable development of clusters.

Keywords: Cluster, agriculture, investor, competition, support mechanism, agrotechnologies.

Аннотация. Углубление производственных процессов в мировой экономике, а также возрастающая необходимость усиления аграрной интеграции и рационального использования ресурсов значительно повысили значимость аграрных кластеров. Модель кластера основана на принципах территориальной концентрации, кооперации и экономической интеграции, в рамках которых государство и аграрный сектор формируют сложную систему взаимного сотрудничества. В таких условиях механизмы государственной поддержки и стратегическое участие инвесторов становятся решающими факторами устойчивого развития кластеров.

Ключевые слова: Кластер, сельское хозяйство, инвестор, конкуренция, механизм поддержки, агротехнологии.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi klasterlari zamonaviy agrar iqtisodiyotning transformatsiyalashuv bosqichida tadbirkorlikni rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish hamda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish uchun qulay sharoitlarni ta'minlovchi strategik hududiy-iqtisodiy model sifatida alohida o'rin egallab kelmoqda. Klaster yondashuvining agrar sohada qo'llanilishi turdosh tarmoqlar o'rtasida vertikal va gorizontal integratsiyani kuchaytirish, iqtisodiy sinergiya yaratish, kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash hamda ilmiy-innovatsion yutuqlarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish imkonini bermoqda.

Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi klasterlarining innovatsiyalar va investitsiyalarni jalb etishdagi o'rni, shuningdek ularning agrar sektorda samaradorlikni oshirishga qo'shayotgan hissasi chuqur tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro bozorlarda raqobatning kuchayishi hamda iqlim o'zgarishi oqibatida resurslar tanqisligining ortib borishi hukumatlar oldiga agrar sohaga kompleks tashkiliy, moliyaviy va institutsional ko'mak ko'rsatish zaruratini qo'yimoqda.

Shu munosabat bilan ko'plab mamlakatlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar yetishtirish va qayta ishlash zanjirlarini rivojlantirish maqsadida klasterlash siyosatini faol amalga oshirmoqda. Qishloq xo'jaligi klasterlari davlat tomonidan beriladigan soliq, bojxona, infratuzilma va investitsion imtiyozlar orqali tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning innovatsion modeli sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bunda klasterlar nafaqat ishlab chiqarish markazi, balki ilmiy izlanishlar, texnologik transfer, eksport logistikasini rivojlantirish hamda zamonaviy boshqaruv standartlarini tatbiq etish uchun o'ziga xos platforma vazifasini bajaradi. Shunday qilib, qishloq xo'jaligi klasterlari innovatsiyaga asoslangan rivojlanish mexanizmlarini shakllantirish orqali agrar tarmoqlar samaradorligini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda strategik ahamiyat kasb etmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi klasterlarining amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish hamda yuqori samaradorlikka erishishga qaratilgan bo'lib, mazkur masala bo'yicha klasterlar nazariyasi rus va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan keng o'rganib kelinmoqda. Jumladan, J. Ashenbroix, S. Aleksandr, A. Barabolina, V. Baburin, I. Bortnik, S. Zemtsov va V. Tarasenko tomonidan klasterlar faoliyatiga oid qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Shuningdek, paxta-to'qimachilik klasterlarining mohiyati va ularni rivojlantirish masalalari O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham chuqur ilmiy izlanishlar doirasida tadqiq etilgan. Xususan, professor M. Rahmatovning "Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans ostonasida" nomli asarida klasterlarni tashkil etish, ularni rivojlantirish hamda moliyalashtirish mexanizmlariga oid masalalar keng yoritilgan.

O'zbekistonda paxta-to'qimachilik klaster tizimi asosida ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy asoslari M. A. Rahmatov va B. Z. Zaripovlarning "Klaster-integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish" risolasida atroflicha bayon etilgan. Mazkur tadqiqotlarda klasterlash jarayonining agrar tarmoqda iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi roli asoslab berilgan.

Ushbu ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, klasterlar faoliyatini rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlari, mavjud muammolar va ularni hal etish usullariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa klaster modelini takomillashtirish hamda uning samaradorligini oshirish yo'nalishida muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


O'zbekistonda keyingi yillarda ilg'or texnologiyalarga asoslangan infratuzilmani yaratish hamda qishloq xo'jaligida klaster usulini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Klasterlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarning o'rni va ularning qonuniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish mazkur tadqiqotda kompleks va samarali metodologik yondashuvlardan foydalanishni taqozo etdi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, nazariy mushohada va mantiqiy yondashuv asosida klasterlar faoliyatini moliyalashtirish masalalari ilmiy-nazariy tahlil qilindi. Shunga muvofiq, ilmiy adabiyotlar tahlil etilib, muammoga oid tadqiqotchilar va mutaxassislarning ilmiy qarashlari umumlashtirish va guruhlash metodlari asosida tizimlashtirildi.

Rasmiy va amaliy materiallarga tayangan holda tahlil va sintez usullari qo'llanilib, ilmiy xulosalar chiqarildi. Deduktsiya va induktsiya yondashuvlari asosida klasterlarni moliyalashtirish jarayonida moliyaviy boshqaruvga ta'sir etuvchi omillar quyi darajadan yuqori darajagacha hamda aksincha yo'nalishda o'rganildi. Mantiqiy va taqqoslama tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik usullarni qo'llash orqali kompleks tahlillar asosida ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda klaster yondashuvi iqtisodiyotning turli tarmoqlarini modernizatsiya qilish, qo'shimcha qiymat zanjirlarini shakllantirish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim mexanizm sifatida e'tirof etilmoqda. Qishloq xo'jaligi, yengil sanoat, farmatsevtika, kimyo, oziq-ovqat hamda boshqa yo'nalishlardagi klasterlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda (1-rasm).



1-rasm. Klasterlar faoliyatida davlat qo'llab-quvvatlashining o'rni

Yuqoridagi rasm ma'lumotlariga asoslanib, klasterlar faoliyatining muvaffaqiyati davlat ko'magining samaradorligi hamda investorlarning faol ishtirokiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Davlat tomonidan yaratiladigan huquqiy, institutsional va tashkiliy asoslar klasterlarning barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantiradi. Soliq, bojxona va kredit siyosatidagi rag'batlar, shuningdek, rezidentlar huquqlarining kafolatlanishi biznes xavflarini kamaytirib, investorlar uchun ishonchli investitsiya muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar hamda eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari klasterlar doirasida yangi korxonalar tashkil etilishiga va qo'shimcha qiymat yaratish jarayonining kengayishiga samarali hissa qo'shadi.

Qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar — bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish va xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlardir. Ushbu subyektlar agrar sohaning barqarorligini ta'minlash, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Respublikada 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 460,3 ming tani tashkil etadi. Shundan 33,2 ming, ya'ni 7,2 foizi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida faoliyat yuritmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar agrar sektorning iqtisodiyotdagi ulushi va ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Qishloq xo'jaligi korxonalari nafaqat mahsulot yetishtirish, balki qishloq joylarda ish o'rinlari yaratish hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu korxonalarning faoliyati zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash bilan uzviy bog'liq bo'lib, davlat siyosati va xususiy investorlar ishtiroki orqali yanada rivojlanishi mumkin. Bu esa qishloq xo'jaligi sektorining samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi birlashmalari a'zolari hamda meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Jumladan, mahsulot yetishtiruvchilarni qayta ishlovchi va eksport qiluvchi tashkilotlar bilan uch tomonlama kelishuvlar asosida aylanma mablag'lar bilan ta'minlash, yangi bog'lar, tokzorlar va issiqxonalar barpo etish, shuningdek, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash obyektlarini yaratish uchun tijorat banklari tomonidan 20 milliard so'mgacha miqdorda kreditlar ajratiladi. Ushbu kreditlar bo'yicha "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi" hisobidan foiz stavkasining O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasidan oshadigan, biroq 8 foiz punktidan ko'p bo'lmagan qismiga kompensatsiya beriladi yoki kredit summasining 50 foizi miqdorida kafillik taqdim etiladi.

Mazkur mexanizmlar klaster ishtirokchilarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, investitsiya faolligini oshirish hamda agrar sohada innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Klasterlar faoliyatining samarali tashkil etilishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lsa-da, davlat qo'llab-quvvatlashi hamda investorlarning faolligi ularning muvaffaqiyatida hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, klasterlarning shakllanishi va barqaror rivojlanish bosqichlarida davlatning institutsional yondashuvi markaziy o'rin tutadi. Xususan, huquqiy-me'yoriy bazaning mukammalligi, byurokratik jarayonlarning soddalashtirilishi, soliq va bojxona imtiyozlarining taqdim etilishi klaster subyektlari uchun qulay biznes muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, davlat tomonidan infratuzilmaviy loyihalarning moliyalashtirilishi, logistika tizimining rivojlantirilishi va zamonaviy texnoparklarning barpo etilishi klasterlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Investorlar roli esa klasterlarning ichki dinamikasini belgilovchi asosiy drayverlar qatoriga kiradi. Ular tomonidan jalb etiladigan chet el investitsiyalari nafaqat moliyaviy resurslarni ko'paytiradi, balki ilg'or texnologiyalar, innovatsion boshqaruv amaliyotlari hamda global bozorlar bilan integratsiyani ta'minlaydi.

Xorijiy investorlar ishtiroki klasterlar doirasida sog'lom raqobatni rivojlantirish, mahsulot tannarxini optimallashtirish va qo'shimcha qiymat ulushini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xususiy sektorning klaster boshqaruvidagi ishtiroki uning moslashuvchanligini kuchaytirib, bozor talablariga tezkor javob berish imkoniyatini yaratadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim sharoitlarda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni yanada muvozanatlashtirish klasterlar samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, davlat aralashuvining oqilona darajada bo'lishi raqobat muhitini qo'llab-quvvatlaydi, investorlar uchun esa risklarni boshqarish mexanizmlarining rivojlanishi ularning faolligini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, klaster subyektlari o'rtasida axborot almashuvini kengaytirish, innovatsion ekotizimni mustahkamlash hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan sanoat o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish klasterlarning to'liq va samarali ishlashiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, davlat tomonidan yaratilgan qulay shart-sharoitlar va investorlarning faol ishtiroki uyg'unlashgan holda klasterlarning yuqori samaradorlikka erishishini ta'minlaydi. Ular o'rtasidagi optimal hamkorlik modeli iqtisodiyotda innovatsion o'sishni rag'batlantiradi, eksport salohiyatini kengaytiradi hamda hududiy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, klasterlar samaradorligi davlatning institutsional qo'llab-quvvatlashi hamda xususiy investorlarning faol ishtiroki bilan chambarchas bog'liqdir. Davlat tomonidan yaratilgan qulay biznes muhiti, infratuzilmaning rivojlanishi, soliq va bojxona yengilliklari klasterlarning shakllanish jarayonini jadallashtirsa, investorlar tomonidan jalb etiladigan kapital va texnologiyalar ularga yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Shu asosda klaster faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi aniq me'yorlarni takomillashtirish, investorlar uchun kafolatlarni kuchaytirish hamda klaster subyektlari o'rtasidagi kooperatsiyani mustahkamlovchi huquqiy mexanizmlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Davlat-xususiy sektor hamkorligiga asoslangan loyihalar orqali infratuzilma, texnoparklar, ilmiy markazlar va logistika obyektlarini rivojlantirishni jadallashtirish, shuningdek, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, kredit kafolatlari hamda erkin iqtisodiy hududlardagi yengilliklarni kengaytirish orqali xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish zarur. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi klasterlarning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 23-10-2019-yil, PF-5853-son. <https://lex.uz/docs/-4567334>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02-12-2016-yildagi PQ-2687-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/3080756>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 16-11-2021-yil, PF-14-son. <https://lex.uz/docs/-5731033?ONDATE=14.12.2023%2000>
4. Marshall, A. Principles of Economics. London, 1890.
5. Rahmatov, Murtazo Axmedovich. Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans ostonasida. Toshkent: "Zamin nashr", 2021. — 212 b.
6. Rahmatov, M. A., Zaripov, B. Z. Klaster-integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish. Toshkent: "Zamin nashr", 2018.
7. Hasanov, Bahodir Akramovich, Nurmanov, Karjaubay. Klasterlar va fermer xo'jaliklarida strategik boshqaruv hisobi va tahlilning metodologik masalalari. Toshkent: "Lesson Press", 2022.
8. www.lex.uz
9. www.stat.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100